

ALI QUSHCHI – ILM INSONI

Murodova Dilrabo Shomurodovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD).

To'layev Shohjaxon Shoxrux o'g'li

Buxoro davlat universiteti tarix ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15190661>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining mashhur namoyandasi, jahon ilm-fan tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan falakiyotshunos va riyoziyotchi olim Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiyning hayoti yo'li hamda ilmiy merosi tahlil qilinadi. Ustozi Ulug'bek tomonidan "farzandi arrjumandim" deya, e'tirof etilgan Ali Qushchining aniq fanlar rivojiga qo'shgan hissasi nihoyatda beqiyosdir. Shu bilan birgalikda mantiq, adabiyot, falsafa, musiqa va boshqa fan sohalariga oid risolalar yozadi. Olimning 20 dan ortiq ilmiy asarlari meros bo'lib qolgan.

Kalit so'zlar: Rasadxona, madrasa, olim, risola, riyoziyot, falakiyot, jadval, jug'rofiya", Istanbul.

ALI KUSHCHI – A SCIENTIST

Abstract. This article analyzes the life path and scientific heritage of Mawlana Alauddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarkandi, a famous representative of the Mirzo Ulugbek scientific school and an astronomer and mathematician who holds a unique place in the history of world science. The contribution of Ali Kushchi, recognized by his teacher Ulugbek as "my dear son," to the development of exact sciences is incomparable. At the same time, he wrote treatises on logic, literature, philosophy, music, and other sciences. He left behind more than 20 scientific works.

Keywords: Observatory, madrasah, scholar, treatise, mathematics, astronomy, tables, geography," Istanbul.

АЛИ КУЩИ – УЧЕНЫЙ

Аннотация. В статье анализируется жизнь и научное наследие Мавланы Алаудина Али ибн Мухаммада Кушчи Самарканди, известного представителя научной школы Мирзо Улугбека, астронома и математика, занимающего уникальное место в истории мировой науки. Али Кушчи, которого его учитель Улугбек называл «обещавшим ему сына», внес несравненный вклад в развитие точных наук. В то же время он писал трактаты по логике, литературе, философии, музыке и другим областям науки. Ученый оставил после себя более 20 научных трудов.

Ключевые слова: Обсерватория, медресе, ученый, трактат, математика, астрономия, таблица, география», Стамбул.

Kirish

Millat va vatan tarixida o'chmas iz qoldirgan daholar har bir xalq tarixida topiladi. Ana shunday muhtaram zotlardan biri Ali Qushchidir. "O'z davrining Batlimusi" deb tanilgan olimning asil ismi Mavlono Alovuddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy bo'lib, manbalarda taxmin qilinishicha, 1403-yilda Samarqandda tug'ilgan. Otasi Muhammad ismli shaxs bo'lib, Temuriylar saroyida ovchi, qushlarga qarovchi bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli Mavlono Alovuddin Aliga "Qushchi" taxallusi berilgan. Ali Qushchi erta otasidan ajralganligi bois Mirzo Ulug'bek uni o'z tarbiyasiga oladi hamda ustoz sifatida ilm saboqlarini beradi.

Shundan so'ng esa Ali Qushchi faoliyatida yangi sahifa ochiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqolada aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim Ali Qushchining fan rivoji yo'lida qilgan xizmatlari va yaratgan asarlari ilmiy tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili, xolislik, qiyosiy-mantiqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki saboqlarni Qozizoda Rumiydan Samarqandda oladi. 1414-yilda Eronning Kirmon shahridagi madrasalarda tahsil olib, ma'lum muddatdan so'ng 1417-yili yana Samarqandga qaytib keladi. So'ngra Mirzo Ulug'bekdan uzur so'rab, o'zining birinchi yozgan risolasini unga tortiq etadi. Samarqandda madrasalarida Ali ham tahsil olib, fan drag'lari bo'lgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy va Mirzo Ulug'bekdan matematika va astronomiya fanlarini puxta o'rganadi. Madrasani bitirgach, falakiyot va riyoziyot ilmlaridan mashg'ulotlar olib borib, ilmiy ishlar bilan mashg'ul bo'ladi. Shu davrda "Hisob risolasi" va "Astronomiya risolasi" asarlarini yozadi va ilm ahli orasida obro' qozonadi.

Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Mirzo Ulug'bek bilan Ali Qushchi munosabatlari juda samimiy bo'lgan. Ba'zi bir manbalarda Mirzo Ulug'bek o'z o'g'illari Abdulatif va Abdulazizdan Ali Qushchini suyganligi aytiladi. Bunga misol uchun Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarida Ali Qushchini "farzandi arjumond" ya'ni "Aziz farzandim" deya, o'z fikrlarini shunday bayon etgan: "Ammo ittifoqo, farzandi arjumand Ali ibn Muhammad Qushchi umrining yosh yillaridan va gullagan yigitlik fasllaridan beri ilm-u fan zamirida ilg'orlab boryapti va uning tarmoqlari birla mashg'uldir. Qattiq ishonch va muxaqqaq umid bordurki, buning natijasida uning shuhrati yaqin zamonlarda va eng tez onlarda jahonning atrof-u atroflariga va mamlakatlariga yoyilib, tarannum bo'lur" [1, 25].

Mirzo Ulug'bek tomonidan 1424-yilda Samarqand yaqinidagi Ko'hak (Cho'ponota) tepaligida osmon jismlarini o'rganish maqsadida Rasadxona qurilishi boshlanadi.

Bu qurilishda Ulug'bekning yaqin safdoshlari G'iyosiddin Jamshid Koshiy va Qozizoda Rumiylar rahbarlik qilgan bo'salar, so'ngra esa Ali Qushchi boshchiligidagi bunyodkorlik ishlari 1429-yilda yakunlanadi. Unda o'ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblarning bo'lib, ulardan eng ahamiyatlisi radiusi 40,2 mli qo'shaloq yoydan iborat (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi [2, 50].

Ali Qushchi juda ko'p fanning turli sohalariga oid, xususan, astronomiya masalalarini talqin etuvchi asarlar, jumladan, ko'p olimlarning fikricha, yigirmaga yaqin fandan bahs etuvchi "Mahbub al hamoyil fi kashf al masoyil" ("Masalalarni yechishda sevimli kamar"), "Risola dar ilmi hay'at", "Risolayi hisob", "Sharhi qofiya", "Sharhi shofiya", "Ilmi sarf" kabi mukammal ilmiy asarlarlarni yozgan. Mirzo Ulug'bek "Ziji jadidi ko'ragoniy" (1437) asarining yozilishida Ali Qushchining ham o'rni be'qiyosdir. Ali Qushchi davlat ishlarida ham faol bo'lib, jumladan, Mirzo Ulug'bekning buyrug'i bilan 1438-yilda Xitoy saltanatiga elchi qilib yuboriladi. U yerdan qaytgandan so'ng "Matematika va astronomik jug'rofiya", "Tarixi hoqoni Chin" asarlarini yozadi [4, 268].

1449-yilda Mirzo Ulug'bek o'g'li tomonidan o'ldirilganidan so'ng uning ilmiy merosi va Samarqanddagi kutubxonasi havf ostida qoladi. Bu kutubxonani Ali Qushchi saqlab qolgan degan taxminlar bor. Rivoyatlarga ko'ra bu kutubxona Samarqand yaqinidagi Hazrati Bashir qishlog'iga ko'chirilganligi aytiladi. Mirzo Ulug'bek vafotidan ikki yil o'tib, hokimiyat tepasida Sulton Abu Said Mirzo keladi. U ham Ulug'bekning yaqinlariga, jumladan, Ali Qushchiga ham homiylik qilgan. Bu davrda Ali Qushchi Nosiruddin Tusiylarning "Tajrid" nomli kitobiga ilgari yozgan sharhini tugatib, Sulton Abu Saidga taqdim qildi [3, 45]. Abu Said o'limidan so'ng (1469) Temuriylar saltanatida ro'y berayotgan nizolar sababli do'stlari va homiylaridan ajragan keksa olim o'z vatanini tark etadi. Dastlab Karmanada (1471) keyinchalik esa Turkiya hududiga boradi.

Bu paytda Usmonlilar Konstantinopolni ishg'ol etgan edilar. Bu davrda Turkiya sultoni Muhammad II o'z atrofiga olimlar va fuzalolarni yig'ayotgan edi. Bu voqea to'g'risida olim o'z risolalarida shunday yozadi: "Sulton meni qabul qilganida uning taklifidan men bilan so'zlashish niyati bor ekanligi yaqqol ko'rinib turardi. Sulton mendan unga atab ilmi riyoziyotdan kitob yozishimni so'radi. Men Sultondan tabiiy fanlarga muhabbat borligini sezdim va qisqa vaqt ichida ilmi riyoziyotdan kichik kitob yozdim". Olim Sulton sharafiga atab "Kitob al-Muhammad" deb nomlangan riyoziyotga oid risolani yozdi va unga taqdim etdi. [4]. Bu ishi uchun u mukofot tariqasida har oyda 200 dirham pul oladigan bo'ldi. Ali Qushchi 1472-yilda Istanbuldagi Aya Sofiya madrasasiga bosh mudarris qilib tayinlanadi. U shundan so'ng riyoziyot, falakkiyot, adabiyot, musiqa va boshqa fan sohalaridan risolalar yozadi. Bu qisqa vaqt ichida ko'plab shogirdlar tayyorlab, o'z maktabiga asos solidi.

Ali Qushchining buyuk xizmatlaridan yana biri shundaki, u agarda Mirzo Ulug‘bekning “Zij Ko‘ragoniy” asarini Turkiyaga olib kelib turk tili va boshqa tillarga tarjima qilib tarqatmaganda edi, “Buyuk geografik kashfiyotlar” bu darajada ahamiyatli bo‘lmas edi. Chunki XVI–XVII asrlarda yangi dengiz yo‘llari kashf qilinayotgan vaqtda yulduzlarning aniq jadvaliga ehtiyoj nihoyatda katta bo‘lgan [5, 26]. Ulug‘bek maktabi namoyandalari va xususan Ali Qushchining asarlari va dunyoqarashlari ilm-fan tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ali Qushchi dunyo moddiy narsalardan iborat, moddiy narsalar esa oddiy va murakkab holda bo‘lib, ularda ichki ziddiyatlar mavjud, deb hisoblagan. U fasllar almashinuviga Yerning Quyoshga yaqinlashuvi sababligini aytgan.

Ali Qushchi vafotidan so‘ng uning shogirdlari - Mirim Chalabiy, Husayn Birjandiy, Bahovaddin Omuliy, Najmiddin Alixon va boshqalar uning ilmiy ishlarini davom ettirganlar.

XULOSA

Ali Qushchi tomonidan bizga 20 dan ortiq asarlar meros bo‘lib qolgan hozirgi kunda bu asrlar dunyoning turli qismlarida tarqalib ketgan. Ali Qushchi asarlari qo‘lyozmalari Abu Rayxon Beruniy nomidagi Toshkent Sharqshunoslik instituti, Dushanbe, Sankt-Peterburg, Mashhad, Istanbul, Oksford, Leyden (Niderlandiya) va Aya Sofiya (Turkiya) kutubxonalari va ilmy markazlarida saqlanmoqda. Ali Qushchi 1474-yil 16-dekabr kuni Istanbulda vafot etgan.

U Istanbuldagi Ayyuba masjidi huzuridagi qabristonga dafn qilingan. Masjidning kirish qismidagi marmar toshga “Ali Qushchi – ilm insoni” satrlari bitib qo‘yilgan.

REFERENCES

1. Ahadova M., O‘rta osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari, T.; 1983.
2. Nosirov A., Ali Qushchi, T.;1964.
3. Ahmedov B., Ulug‘bek tarixi” T.; 1965.
4. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/ali-qushchi/>
5. Murodova, D., & Obidova, G. (2025). FRANS ROZENTAL QUR‘ONDA “ILM” TUSHUNCHASINI TAHLIL QILGAN OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 157-161.